

INFLYATSIYA VA UNING TA'SIRI



Abdikarimova Zuhra Azamat qizi

Toshkent .S.H.Sirojiddinov nomidagi Akademik Litsey 1-

kurs Iqtisod yo 'nalishi 104-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inflyatsiyaning iqtisodiy mazmuni, uning kelib chiqish sabablari hamda jamiyat va iqtisodiyotga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan.

Inflyatsiyaning turli shakllari, ichki va tashqi omillar bilan bog'liq jihatlari, shuningdek uni cheklashga qaratilgan iqtisodiy siyosat choralari yoritilgan.

Kalit so'zlar: inflyatsiya, narxlar o'sishi, iqtisodiy barqarorlik, pul-kredit siyosati, talab va taklif

Аннотация: В статье рассмотрена экономическая сущность инфляции, причины её возникновения, а также влияние на общество и национальную экономику. Анализируются виды инфляции, внутренние и внешние факторы, способствующие росту цен, а также меры государственной политики по её снижению.

Ключевые слова: инфляция, рост цен, экономическая стабильность, денежно-кредитная политика, спрос и предложение

Annotation: This article examines the economic nature of inflation, its underlying causes, and its impact on society and the national economy. Various types of inflation, internal and external contributing factors, as well as policy measures aimed at controlling inflation, are discussed.

Keywords: inflation, price increase, economic stability, monetary policy, supply and demand

KIRISH

Bugungi globalashuv jarayonida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ulardan eng muhimlaridan biri narxlar barqarorligidir. Narxlarning uzluksiz oshib borishi — inflyatsiya, mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga,

aholi turmush darajasiga va biznes faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois inflyatsiyani o'rganish, uning sabablari hamda oqibatlarini tahlil qilish iqtisodiy siyosatning dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Inflyatsiyaning mohiyati:

Inflyatsiya — bu tovar va xizmatlar narxlarining umumiy darajada oshishi natijasida pulning xarid qobiliyatining pasayishi jarayonidir. Ya'ni avvalgi qiymatdagi pulga kamroq mahsulot yoki xizmat sotib olish mumkin bo'lib qoladi. Inflyatsiya iqtisodiyotdagi pul massasining ortishi, talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblik yoki iqtisodiy resurslarning qimmatlashuvi orqali yuzaga keladi.

Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablari

1. Talab inflyatsiyasi:

Aholi daromadlarining oshishi, davlat xarajatlarining ko'payishi yoki kreditlarning kengayishi natijasida bozor talabining ortishi narxlarning oshishiga olib keladi.

2. Taklif inflyatsiyasi:

Ishlab chiqarish xarajatlari — xomashyo, energiya resurslari, transport, ish haqi va boshqa xarajatlarda oshganda korxonalar mahsulot narxlarini ko'tarishga majbur bo'ladi.

3. Monetar omillar:

Mamlakatda ortiqcha pul emissiyasi, kreditlash hajmining haddan tashqari ortishi yoki valyuta kursining pasayishi inflyatsiyani tezlashtiradi.

4. Tashqi iqtisodiy omillar:

Global bozorlarda narxning keskin ko'tarilishi, import qilinadigan mahsulotlarning qimmatlashishi, geosiyosiy vaziyatlar va transport-logistika inqirozlari ham inflyatsiyaning o'sishiga sabab bo'ladi.



Inflyatsiyaning ijobiy va salbiy ta'siri:

Ijobiy ta'sirlar:

Me'yoriy va past inflyatsiya iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin.

Ishlab chiqaruvchilarning daromadi oshadi, bu esa investitsiyalarni ko'paytiradi.

Aholining jamg'armalarni investitsiyaga yo'naltirishiga turtki beradi.

Salbiy ta'sirlar:

Pulning xarid qobiliyati pasayadi, real daromadlar qisqaradi.

Ijtimoiy tengsizlik kuchayadi, past daromadli qatlam ko'proq zarar ko'radi.

Biznes uchun noaniqlik yuzaga keladi, uzoq muddatli rejalashtirish qiyinlashadi.

Milliy valyuta qadrsizlanadi, bu import mahsulotlarining yanada qimmatlashishiga olib keladi.

Bank tizimida foiz stavkalari oshadi va kreditlardan foydalanish qimmatlashadi.

Inflyatsiyaning jilovlash choralari

1. Pul-kredit siyosati

Markaziy bank tomonidan asosiy stavkani ko'tarish, pul massasini cheklash, kreditlash hajmini pasaytirish inflyatsiyaning sekinlashtiradi.

2. Fiskal siyosat

Davlat xarajatlarini optimallashtirish, byudjet taqchilligini kamaytirish va soliq intizomini kuchaytirish orqali narxlar barqarorlanadi.

3. Mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish

Importga bog'liqlikni kamaytirish, mahalliy korxonalarni qo'llab-quvvatlash orqali narxlarning oshishi oldi olinadi.

4. Raqobatni kuchaytirish

Sog'lom raqobat narxlar sun'iy oshirilishiga yo'l qo'ymaydi va bozor barqarorligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan global iqtisodiyot sharoitida inflyatsiyaning o'sishi tabiiy jarayon sifatida qaraladi. Har qanday inflyatsiyaning negizida iqtisodiy muvozanatlarning buzilishi, ya'ni talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblik, ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi yoki pul-kredit siyosatidagi muayyan kamchiliklar yotadi. Shu bois inflyatsiyaga qarshi kurashni faqatgina uning ko'rinadigan belgilarini bosib qo'yish, narxlarning o'sishini vaqtinchalik to'xtatish yoki qisqa muddatli choralar bilan cheklash emas, balki iqtisodiyotda chuqur ildiz otgan muammolarni aniqlab, ularga samarali yechim topishga yo'naltirilgan tarkibiy siyosatni amalga oshirish zarur.

Inflyatsiya atamasi lotincha "inflatio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "shishish", "bo'rtish" yoki "ko'tarilish" kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu tushuncha iqtisodiy terminologiyada mamlakat ichida tovar va xizmatlar narxlari umumiy darajasining uzluksiz ravishda oshishi, ya'ni iqtisodiyotdagi umumiy narxlar darajasining o'sishi jarayonini ifodalaydi. Inflyatsiya natijasida aholining kundalik hayotida iste'mol qiladigan tovarlar va xizmatlarning narxi ko'tariladi, bu esa milliy valyutaning xarid qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Boshqacha qilib aytganda, inflyatsiya sharoitida pul birligining qadrsizlanishi kuzatiladi, chunki avval ma'lum bir miqdordagi pulga xarid qilish mumkin bo'lgan mahsulot va xizmatlar hajmi inflyatsiya tufayli kamayib boradi. Bu jarayon aholining real daromadlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi: pulning nominal qiymati o'zgarishsiz qolgan taqdirda ham, uning amaliy xarid qobiliyati pasayadi.

Endi buni mamlakat miqyosida oladigan bo'lsak, mamlakatda iqtisodiy barqarorlik izdan chiqadi, aholi turmush darajasiga bosim kuchayadi va pul birligining qadrsizlanishi muammosi yanada keskinlashadi. Inflyatsiya jarayoni iqtisodiyotning turli jihatlariga bog'liq bo'lib, unga talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblik, ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi, pul-kredit siyosatidagi kamchiliklar, import qilinadigan mahsulotlar narxining o'sishi kabi omillar sabab bo'ladi. Ayniqsa, davlat tomonidan iqtisodiyotga ortiqcha pul chiqarilishi yoki pul massasi ko'paytirilishi ham inflyatsiyaning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

XIX asrning yarmida, rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiyotida pul va inflyatsiya masalalari, ayniqsa monetarizm tamoyillari bilan bog'liq muammolar ko'proq muhokama qilinadi. O'sha davrda, iqtisodiy oqimlar va maktablarda monetarizm iqtisodiy nazariyalarining asosiy maqsadi sifatida inflyatsiyani boshqarish va pul muomalasidagi o'zgarishlarni nazorat qilishni ta'kidlaydi. Jon Meynard Keynsning iqtisodiy nazariyasida „asosiy muammo ishsizlik, ya'ni iqtisodiyotda talabning yetishmasligi va uning natijasida yuzaga keladigan noxush oqibatlariga qarshi kurashish edi”. Keyns, davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini qo'llab-quvvatladi, chunki uning fikricha, davlat byudjeti va pul siyosati orqali talabni rag'batlantirish va ishsizlikni kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, monetarizm nazariyasida asosiy muammo ishlab chiqarish hajmining pasayishi va inflyatsiyaning yuqori darajada bo'lishi edi.

Milton Fridmen, “pul miqdorining oshishi inflyatsiyani keltirib chiqaradi, deb hisoblagan “.Shu bilan birga O'zbek izlanuvchilari Abdurauf Shavkatov, Uktam Islomov,

Bahrom Sultonovlar o'z fikrni bildirgan. Xususan A. Shavkatov “inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta'sirini o'rganib, uning o'sishining asosiy sabablaridan biri davlatning pul siyosatining muvofiqligi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi xatoliklar ekanligini ta'kidladi”. U inflyatsiyani kamaytirish uchun pul muomalasini tartibga solish va fiskal siyosatni yaxshilash zarurligini ko'rsatdi.

Inflyatsiyani kelib chiqishiga ko'ra ikki toifaga ajratish mumkin:

1) Talab inflyatsiyasi- iqtisodiyotda talabning keskin oshishi natijasida yuzaga keladi. Bunda pul taklifi ortib borishi yoki aholining inflyatsion kutilmalari shakllanishi muhim omillar hisoblanadi. Sodaroq aytganda, ishlab chiqarish sohasi aholining mavjud talabini to'liq qondira olmaydi, ya'ni taklif hajmi talablarga javob bera olmaydigan darajada past bo'lib qoladi. Natijada talab taklifdan sezilarli darajada oshib ketadi.

2) Taklif inflyatsiyasi-inflyatsiyaning bu turi ishlab chiqarish xarajatlarining keskin oshishi natijasida sodir bo'ladi. Ya'ni, har xil jarayonlar va tarkibiy o'zgarishlar (solliqlar o'zgarishi, energiya resurslari narxlari oshishi, davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar oshirilishi va boshqalar) tufayli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar oshadi. Natijada ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning narxlari oshadi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar inflyatsiyaga qarshi kurashishda iqtisodiy tuzilmaning beqarorligi va tarkibiy buzilishlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglab yetganlar. Bu mamlakatlar inflyatsiyani jilovlash uchun faqatgina pul muomalasini tartibga solish, pul-kredit siyosatini qat'iylashtirish yoki ortiqcha umumiy to'lovga qobiliyatli talabni bartaraf etish bilan cheklanmaganlar. Ular bir vaqtning o'zida iqtisodiyotning barcha jabhalarida chuqur tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni ko'paytirish, samaradorlikni oshirish va ichki bozorni barqarorlashtirishga katta e'tibor qaratganlar. Bunday yondashuv iqtisodiy nomutanosibliklarni bosqichma-bosqich bartaraf etib, iqtisodiyotning uzoq muddatli va barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Xususan, energiya resurslari narxlarini liberallashtirish, fiskal siyosatni optimallashtirish, moliyaviy bozorlarni rivojlantirish hamda ishlab chiqarish tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish kabi islohotlar inflyatsiya darajasini pasaytirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, texnologik yangiliklarni joriy etish va eksport salohiyatini kuchaytirish orqali ichki va tashqi bozor talabi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash ham muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda ishsizlik va inflyatsiya bo'yicha tadqiqotlar muntazam ravishda olib boriladi.

Makroiqtisodiy rivojlanishning barcha ssenariylarida Markaziy bankning asosiy maqsadi narxlar va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdir. Tashqi sharoitlarning 2022-2023 yillarda ta'sir qilgan o'zgarishlarining ta'minot omillariga bosimi uzoqroq davom etishini hamda ayrim tartibga solingan narxlarni moslashtirishning umumiy inflyatsiyaga ta'sirini hisobga olgan holda, doimiy 5 foizli inflyatsiya maqsadiga erishish 2025 yilning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Shuningdek, maqsadga erishish muddatining uzayishi iqtisodiyotdagi yalpi taklifning ichki iste'mol talabini yetarli darajada qondirishda kechikishi bilan bog'liq, boshqa tomondan esa, yalpi talabni cheklash bo'yicha keskin choralar ko'rilsa, iqtisodiy faoliyat va moliyaviy barqarorlik uchun jiddiy xavf tug'ilishi ehtimoli mavjud.

XULOSA

Inflyatsiya — har bir mamlakat iqtisodiy hayotida tabiiy, lekin ehtiyotkorlik bilan boshqarilishi lozim bo'lgan jarayondir. Uning darajasi me'yoridan oshganda iqtisodiy barqarorlikka jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shu bois inflyatsiyaning sabablari va oqibatlarini chuqur o'rganish, unga qarshi samarali siyosat yuritish mamlakat farovonligi va aholi turmush darajasining yaxshilanishida muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. John Keynes. "The General Theory of Employment, Interest, and Money" 1936 y
2. Milton Friedman. "The Optimum Quantity of Money" 1969 y
3. Shavkatov A- Inflyatsiyaning iqtisodiy o'sishga ta'siri. 2023 y
4. Sultonov B – Pul-kredit siyosati bo'yicha ilmiy maqolalari. 2024 y
5. Ziyo.net